

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)  
**Каланова Сабохат Мурадovна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. профессор (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин</b> РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
<b>2. Karimov Bobir</b> JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
<b>3. Mamatov Normurat</b> IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
<b>4. Rasulov Abdimumin</b> SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
<b>5. Xusanova Hayriniso</b> IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
<b>6. Abduxalilov Abdullo</b> NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
<b>8. Abdullayev Akmal</b> O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
<b>9. Хасанова Мавлюда</b> СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
<b>10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
<b>11. Алимухамедова Нодира</b> ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
<b>12. Tolipov Abdug‘affor</b> VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
<b>13. Berdimuratov Marat</b> YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

<b>14. Хамиджонов Умиджон</b>	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
<b>15. Ixtiyarov Farxod</b>	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
<b>16. Хасанова Мавлюда</b>	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
<b>17. Radjabova Aziza</b>	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
<b>18. Kalanova Sabohat</b>	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
<b>19. Ixomjon Xudayarov</b>	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
<b>20. Tagaymuratova Gulchehra</b>	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
<b>21. Jabborov Jaxongir</b>	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
<b>22. Ixtiyarov Farxod</b>	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
<b>23. Xasanov Sharofidin</b>	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIY TAJRIBASI.....	179
<b>24. Nurulloev Shahriyor</b>	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
<b>25. Аликариев Нуриддин</b>	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
<b>26. Alikariyeva A'loxon</b>	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Rasulov Abdimumin,**

O‘zbekiston Milliy universitei va  
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
e-mail: abdi\_1970@mail.ru

### SHAXSNING SOTSIAL INTELEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099381>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada shaxsning sotsial intellekti bilan kamolot ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, faktorli tahlil asosida o‘rganildi. Tadqiqotda sotsial intellektning emotsional va individuallikning rasmiy-dinamik jihatlaridan ajratilgan shakllari, shaxs kamolotiga ta‘sir etuvchi asosiy faktorlar aniqlandi. Birinchi faktor “Umumiy barkamollik omillari” bo‘lib, shaxsning xususiyatlari va jamoatchilik bilan munosabatlarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi faktor “Fuqarolik burchi va hayotiy ustanovkalar”ni qamrab olib, shaxsning ma‘naviy-ruhiy jihatlarini belgilaydi. Uchinchi faktor “Muloqot va empatiya”ga bag‘ishlangan, to‘rtinchi “Noverbal va verbal muloqot”ni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda, tadqiqotda shaxsning sotsial intellekti darajasi kam bo‘lganlar bilan bog‘liq faktorlar ham tahlil qilinib, shaxsiy kamolotga ta‘sir etuvchi asosiy omillar izohlandi. Tadqiqot natijalari shaxsning ijtimoiy rivojlanishida sotsial intellektning ahamiyatini aks ettadi.

**Kalit so‘zlar:** shaxsning sotsial intellekti, kamolot ko‘rsatkichlari, faktorli tahlil, muloqot va empatiya, noverbal muloqot, verbal ekspressiya, shaxsiy kamolot, psixologik determinantlar, shaxs xususiyatlari, ma‘naviy-ruhiy jihatlar, tashkilotchilikka qobillik, shaxslararo munosabatlar, faktorlar modellari, shaxsning umumiy holati, tasavvur va ijtimoiy rivojlanish

**Расулов Абдимумин,**

Национальный университет Узбекистана и  
Международная исламская академия Узбекистана,  
доктор психологических наук (DSc), профессор,  
e-mail: abdi\_1970@mail.ru

### ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ СОЦИАЛЬНЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ ЛИЧНОСТИ И ФАКТОРАМИ РАЗВИТИЯ

#### АННОТАЦИЯ

В статье исследованы взаимосвязи между уровнем социального интеллекта личности и показателями её развития на основе факторного анализа. В ходе исследования выделены формы социального интеллекта, отдельные по эмоциональным и индивидуальным, соответственно динамическим аспектам, а также определены основные факторы, влияющие на развитие личности. Первый фактор – «Общие компоненты совершенствования» – включает свойства личности и отношения с обществом. Второй фактор – «Гражданский долг и

жизненные установки» – характеризует духовно-нравственные аспекты. Третий – «Коммуникация и эмпатия», четвертый – «Невербальная и вербальная коммуникация». В настоящее время, также проведен анализ факторов, связанных с низким уровнем социального интеллекта, что позволило объяснить основные условия личностного развития. Результаты исследования подтверждают важность социального интеллекта в социальном развитии личности.

**Ключевые слова:** социальный интеллект личности, показатели развития, факторный анализ, коммуникация и эмпатия, невербальная коммуникация, вербальная экспрессия, личностное развитие, психологические детерминанты, свойства личности, духовно-нравственные аспекты, организаторские способности, межличностные отношения, модели факторов, общее состояние личности, воображение и социальное развитие.

**Rasulov Abdimumin,**  
National University of Uzbekistan and  
the International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor,  
e-mail: abdi\_1970@mail.ru

## THE RELATIONSHIP BETWEEN AN INDIVIDUAL'S SOCIAL INTELLIGENCE AND DEVELOPMENTAL FACTORS

### ABSTRACT

The article explores the relationships between an individual's social intelligence and developmental indicators based on factor analysis. The study identifies forms of social intelligence differentiated by emotional and individual-dynamic aspects, as well as the main factors influencing personal development. The first factor – “General components of perfection” – includes personal traits and relations with society. The second factor – “Civic duty and life attitudes” – characterizes spiritual and moral aspects. The third – “Communication and empathy,” the fourth – “Non-verbal and verbal communication.” Currently, the analysis of factors related to low levels of social intelligence was also conducted, explaining the key conditions affecting personal growth. The results highlight the importance of social intelligence in social development.

**Keywords:** personal social intelligence, development indicators, factor analysis, communication and empathy, non-verbal communication, verbal expression, personal development, psychological determinants, personal traits, spiritual and moral aspects, organizational skills, interpersonal relations, factor models, overall state of the individual, imagination and social

### KIRISH

Mamlakatimizda sotsial intellektuallikning o'rganilishi va rivoji zamonaviy psixologiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – shaxsning sotsial intellekt ko'rsatkichlari va kamolot ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilishdir. Shu bilan birga, ijtimoiy intellektuallikning emotsional intellekt, shaxsning umumiy xususiyatlari va boshqa psixologik omillar bilan bog'liqligi ham o'rganiladi.

Sotsial intellekt va shaxs kamoloti o'rtasidagi munosabatlar ko'p qirrali va murakkab bo'lib, ularni to'g'ri baholash uchun turli mezonlar, omillar va faktorlardan foydalaniladi. Bunda, tadqiqotda faktorli tahlil usulidan foydalanib, ijtimoiy intellektning asosiy komponentlari va ularning shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi. Natijalar mazkur sohada yangi ma'lumotlar va nazariy asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu maqolada sotsial intellektning turli jihatlari va ularning shaxsiy kamolotdagi rollari yoritiladi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, ijtimoiy muloqot, empatiya, miyal va yondoshuv qobiliyati kabi omillar shaxsning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, natijalar sotsial intellektning kelgusidagi rivoji yo'llarini va ularni shakllantirishdagi asosiy yo'nalishlarni belgilashda qo'llaniladi.

### METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda insonning sotsial intellekti va shaxs kamoloti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishda turli nazariy va amaliy yondashuvlar, shuningdek, statistik tahlil usullari asos qilib olindi. Tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini Rossiyalik va xorijiy olimlarning psixologiya, ijtimoiy psixologiya va sotsial intellekt sohasidagi nazariy ishlari tashkil etdi (masalan, R.A.L.Juravlev [1], Agrawal [10], Dj.Gilford [11], D.Hooda, N.R.Sharma & A.Yadava [12], X.W.Ickes [13], R.Sternberg [14] va boshqalar). Ushbu nazariyalar sotsial intellektning strukturasi, funksiyalari va rivojlanish mexanizmlari haqida keng qamrovli bilimlarni taqdim etadi va tadqiqot uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda asosiy e'tibor inson faoliyatining ijtimoiy muhitdagi o'z-o'zini namoyon qilish jarayoni, shuningdek, sotsial intellektning shaxs va muhit o'rtasidagi bog'liqliklarini aniqlashga qaratildi. Bu maqsadga erishish uchun, avvalo, sotsial intellekt va shaxsiy kamolotning nazariy konseptlari, ularning tarkibiy qismlari va funksiyalari, shuningdek, ularning rivojlanish omillari o'rganildi. Shuningdek, empirik metodlardan foydalanib, sotsial intellekt va shaxs kamoloti indikatorlarini o'lchash uchun aniq testlar va so'rovnomalar ishlab chiqildi va ularning validligi va ishonchliligi tekshirildi.

### ASOSIY QISM

Mamlakatimizdagi bir qator olimlar ham shaxs kamolotining turli jabhalari va sotsial intellektning unga ta'sirini tadqiq etganlar. Bu borada mahalliy tadqiqotchilaridan G'.Shoumarov [8], E.G'oziev [9], N.Safaev [7], D.Sobirova [5,6] larning tadqiqotlari ahamiyatlidir yetukligining ba'zi jihatlari hamda shaxsning muomala madaniyati, muomalaning o'quv faoliyatini boshqarishdagi roli, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligining muhim psixologik omili bo'lgan mustaqil fikrlash, o'quvchilar bilan muloqot o'rnatishda hamkorlik va shaxslararo munosabatlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga yo'naltirilgan sotsial intellekt omillari o'rganilgan. Bizning tadqiqotimiz esa ushbu izlanishlarning davomi hisoblanadi.

N.I.Leonov va M.M.Glavatskix, aksincha, shaxsning rivojlanishi va uning o'z-o'zi bilan, yaqin atrofdagilari bilan va dunyo bilan munosabatlarni har tomonlama ko'rib chiqish uchun ijtimoiy-orientirli va individual-orientirli mezonlarni integratsiyalash zarur deb hisoblashadi [2].

Birinchi guruh mezonlarni ular ijtimoiy kamolotga oid deyishadi, ikkinchi guruh mezonlarni esa – psixologik kamolotga. Shaxs kamoloti tushunchasiga mualliflar integrativ sub'ektiv sifatlarni kiritishadi: faol hayotiy pozitsiyani, shakllangan o'xshashlik, individuallikni ochish va o'z harakatlarining oqibatlarini uchun javobgarlik, adekvat o'z-o'ziga baho berish va realistik da'volar, hayotga optimistik munosabat. Bu shaxs sifatlari bilan sotsial intellekt integratsiyalashuvini taqazo etadi. Ya'ni shaxs kamolotini o'rganishga bo'lgan integrativ yondashuv bir vaqtning o'zida individual olamga ham, ijtimoiy olamga ham tegishli bo'lgan eng adekvat tushunchadir.

Ye.V.Pankina esa psixologik kamolot ostida insonning sotsiumga moslashganligini tushunadi, o'zining oldidagi o'z individual resurslarini ochib berish uchun javobgarlikni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan qutbni o'z-o'zini faollashtirish deb ataydi [3]. Mas'uliyat va mustaqillikni Ye.V.Pankin psixologik jihatdan komil va o'z-o'zini faolashtiruvchi shaxs uchun umumiy mezonlar deb ataydi [3].

N.P.Patturina ijtimoiy-psixologik kamolot va chuqur psixologik kamolotni biologik (organizm kamoloti) va ruhiy (ruhiy jarayonlar kamoloti) kamolotlar bilan teng bo'lgan psixologik kamolotning komponentlari sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi [4].

Shaxs kamoloti sotsiumda o'zini o'zi boshqarish qobiliyati, ijtimoiy ehtiyojlar va sotsial intellektning realizatsiya vositalari va usullarini kengaytirish deb tushunish mumkin.

Biz tadqiqotimizda shaxs kamoloti bilan sotsial intellekt o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tavsiflovchi yetakchi omillarni aniqlashga e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda Dj.Gilford "Sotsial intellekt" testi, "Shaxs kamolotini aniqlash" (Y.Z.Gilbux) so'rovnomasi. E.G'ozievning "Barkamol (komil) insonni baholash metodikasi" dan foydalanildi. Tadqiqot tanlanmasi sifatida Toshkent davlat agrar universiteti, Samarqand davlat universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 320 nafar talaba va 154 nafar professor-o'qituvchilaridan iborat

Tadqiqotimizning maqsad va vazifalariga muvofiq shaxs sotsial intellekti bilan kamolot ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqa mezonlar ishtirokida xoli holda tadqiq etishga erishildi. Bunda sotsial intellektning emotsional intellekt, individuallikning rasmiy-dinamik jihatlaridan ajratilgan holdagi ifodasini o'rganishga erishildi. Natijalar faktorli tahlil usuli asosida qayta ishlanib, sotsial intellekt bilan shaxs kamoloti tarkibining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini tavsiflovchi asosiy faktorlarni aniqlashga erishildi.

Faktorli tahlilga ko'ra sotsial intellekt darajasi o'rtachadan past bo'lgan shaxslarda sotsial intellekt bilan shaxs kamoloti jihatlarini o'rtasidagi bog'liqlikni shartlovchi uchta omil aniqlandi (1-jadval).

Ushbu toifa sinalluvchilarning sotsial intellekti bilan shaxs kamolotini tavsiflovchi birinchi faktor shaxsning o'ziga xos xususiyatlari (0,866), shaxsning umumiy xususiyatlari (0,777), shaxsning yo'nalganligi (0,731) asosiy kamolot jihatlarini sifatida kuzatildi. Faktorning asosiy "**Shaxs fazilatlarini**" deb nomlandi. Chunki faktorga ko'ra shaxs kamolotini faqat ushbu kamolotni belgilovchi omillar ifodalab bermoqda.

### Sotsial intellekt darajasi o'rtachadan past bo'lgan shaxslarda sotsial intellekt bilan shaxs kamolotini shartlovchi psixologik determinantlar

1-jadval

№	Jihatlar	Faktorlar		
		1	2	3
1.	Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari	0,866		
2.	Shaxsning umumiy xususiyatlari	0,777		
3.	Shaxsning yo'nalganligi	0,731		
4.	Hayotiy ustanovka		0,749	
5.	Boshqa odamni psixologik jihatdan o'ziga yaqin qabul qilish qobiliyati		0,692	
6.	Shaxslararo o'zaro ta'sir		0,868	
7.	Noverbal xulq-atvorni tushunish		-0,819	
8.	Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish			0,791
9.	Noverbal ekspressiyani tushunish			-0,638

Ikkichni faktorni esa, shaxslarning shaxsiy kamoloti va sotsial intellektini shartlovchi jihatlariga aloqador hayotiy ustanovka (0,749), boshqa odamni psixologik jihatdan o'ziga yaqin qabul qilish qobiliyati (0,692), shaxslararo o'zaro ta'sir (0,868), noverbal xulq-atvorni tushunish (-0,819) kabi yuqori yuklamali koeffitsientlar tashkil etdi. Mazkur faktorda shaxs kamolotida noverbal xulqni tushunish ko'pincha insonlarni tushunishning qiyin jihati ekanligini tasdiqlanmoqda. Ammo, shaxs kamolotida shaxslararo ta'sir esa, muhim hisoblanmoqda. Shu sababli asosiy psixologik determinantni "**Shaxslararo o'zaro ta'sir**" deb ataldi. Sotsial intellektning ushbu jihati o'rtachadan past sotsial intellekt darajasidagi shaxslarda atrofda bilan o'zaro munosabatga kirishishga turtki beruvchi ekan.

Uchinchi faktor esa, muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish

(0,791), noverbal ekspressiyani tushunish (-0,638)dan iborat. Ushbu o'rinda noverbal ekspressiyani tushunish ko'p hollarda shaxs kamolotida to'siq bo'lib qolmoqda ekanligi ko'rinmoqda. Shu sababli, salbiy ahamiyatga ega bo'lsa-da, ushbu faktorni "**Noverbal ekspressiyani tushunmaslik**" deb nomladik.

Sotsial intellekt darajasi o'rtacha bo'lgan shaxslarning sotsial intellekti bilan shaxs kamolotining korrelyatsion munosabatlari o'rganildi. Ushbu tadqiqot natijalari quyidagi 2-jadvaldan o'rin olgan.

**Sotsial intellekt darajasi o‘rtacha bo‘lgan shaxslarda sotsial intellekt bilan shaxsiy kamolotini shartlovchi psixologik determinantlar**

2-jadval

№	Jihat	Faktor			
		1	2	3	4
1.	Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari	0,819			
2.	Shaxslararo o‘zaro ta’sir	0,770			
3.	Shaxsning umumiy xususiyatlari	0,761			
4.	Shaxsning yo‘nalganligi	0,727			
5.	Tashkilotchilikka qobiliyatlilik	0,705			
6.	Erishganlik motivatsiyasi		0,775		
7.	Boshqa odamni psixologik jihatdan o‘ziga yaqin qabul qilish qobiliyati		0,726		
8.	Muloqot ishtirokchisining fikrlarini		0,718		
9.	Shaxs yetukligi			0,854	
10.	Hayotiy ustanovka			0,767	
11.	O‘z meniga munosabat				
12.	Noverbal xulq-atvorni tushunish				-0,730
13.	Ijtimoiy ta’sir etuvchanlik				0,707
14.	Verbal ekspressiyani tushunish				0,514

Faktorli tahlilga ko‘ra sotsial intellekt darajasi o‘rtacha bo‘lgan shaxslarning shaxs kamolotini tavsiflovchi to‘rtta yetakchi determinantlar aniqlangan.

Birinchi faktor tuzilmasi shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari (0,819), shaxslararo o‘zaro ta’sir (0,770), shaxsning umumiy xususiyatlari (0,761), shaxsning yo‘nalganligi (0,727) va tashkilotchilikka qobiliyatlilik (0,705) dan iborat yuqori vaznli koeffitsientlardan tashkil topdi.

Ushbu faktorlar o‘rtachadan past sotsial intellekt darjasidagi singari barkamol shaxs uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxs xususiyatlarini – muloqotmandlik, tashabbuskorlik, harakatchanlik, zukkolik, sinchkovlik shaxslararo munosabatda o‘zga insonlar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish, ularning xulq-atvori va xatti-harakatlarini anglash hamda o‘zining shaxsiy fazilati orqali ta’sir ko‘rsatuvchanligini tavsiflaydi. Shunga ko‘ra, faktorda sotsial intellektning shaxslararo o‘zaro ta’sir jihati shaxsning yo‘nalganligi, tashkilotchilik qobiliyati va shaxs umumiy xususiyatlari bilan ichki aloqadorlikni o‘rnata olgan. Faktorning mazmuniy ifodasi **“Shaxslararo o‘zaro ta’sir”** deb nomlashni taqazo etdi. O‘rtachadan past sinalluvchilarga nisbatan o‘rtacha sotsial intellekt darjasi shaxslar kamolotining o‘ziga xos tomonidan biri sifatida shaxslararo ta’sir etuvchanlikni empirik jihatdan ko‘rsatmoqda.

Ikkinchi faktordagi ustuvor jihatlarda erishganlik motivatsiyasi (0,775), boshqa odamni psixologik jihatdan o‘ziga yaqin qabul qilish qobiliyati (0,726), muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (0,718)dan iborat yuqori korrelyatsiyali koeffitsientlar o‘rin oldi. Ushbu faktorda ham sotsial intellekt va shaxs kamolotini tavsiflovchi psixologik determinantlar o‘rtasida bog‘liqliklar kuzatildi. Faktordagi ustuvor jihatlarning mazmuni va o‘zaro bog‘liqligiga asoslanib, shaxsning hayotiy maqsadlarga ega bo‘lishi, empatiya va muloqot ishtirokchilarni tushunish qobiliyatini inobatga olish zarur. Bunga ko‘ra faktorni **“Yo‘nalganlik, empatiya va muloqotmandlik”** tarzida nomlash lozim topildi.

Uchinchi faktorda esa, shaxs kamolotining umumiy yetukligi (0,854) va hayotiy ustanovka (0,767)lardan iborat yuqori yuklamali koeffitsientga ega jihatlar mujassamlashgan. Ushbu faktorda shaxs kamolotida aql-zakovot tuyg‘u, hissiy muvozanat, mulohazakorlikdan ustunligi bilan ajralib turishi umumiy yetuklik darajasini belgilab beradi. Faktorning mazmuniga muvofiq **“Shaxsning umumiy yetuklik darajasi”** deb nomladik.

To‘rtinchi faktorda esa, noverbal xulq-atvorni tushunish (-0,730), ijtimoiy ta’sir etuvchanlik (0,707), verbal ekspressiyani tushunish (0,514)dan iborat bo‘ldi. Ushbu faktorda shaxs kamoloti bilan

sotsial intellekt jabhalari o‘rtasida ham salbiy, ham ijobiy bog‘lanish mavjuddir. Bundan ko‘rinadiki, sotsial intellektning bir elementi shaxs kamolotining o‘shishiga, ikkinchisi esa, uning pasayishiga olib kelar ekan. Noverbal xulq-atvorni tushunish qobiliyatining yo‘qligi shaxsda ijtimoiy ta‘sir etuvchanlik sifatini shakllantirmasligi va aksincha, verbal ekspressiyani tushunish esa, ijtimoiy ta‘sirchanlikning kamol topishiga ko‘malashar ekan. Natijada, faktorni mazmuniga mos ravishda uni **“Shaxs kamolotidagi ziddiyatlar”** tarzida ifodalash lozim topildi.

Amaliy o‘rganish natijalarining navbatdagi sahifalari sotsial intellekt darajasi yuqori bo‘lganlarning shaxsiy kamolotini kafolatlovchilarini aniqlashga qaratildi (3-jadval).

**Sotsial intellekt darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda sotsial intellekt bilan shaxsiy kamolotini shartlovchi psixologik determinantlar**

**3-jadval**

№	Jihatlar	Faktorlar					
		1	2	3	4	5	6
1.	Tashkilotchilikka qobiliyatlik	0,780					
2.	Shaxslararo o‘zaro ta‘sir	0,768					
3.	Shaxsning umumiy xususiyatlari	0,767					
4.	Shaxsning yo‘nalganligi	0,703					
5.	Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish	0,650					
6.	Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari		0,817				
7.	Noverbal xulq-atvorni tushunish		0,775				
8.	Fuqarolik burchi			0,809			
9.	O‘z meniga munosabat			0,689			
10.	Ijtimoiy ta‘sir etuvchanlik				0,858		
11.	Verbal ekspressiyani tushunish		0,534		0,583		
12.	Erishganlik motivatsiyasi					0,798	
13.	Hayotiy ustanovka					0,680	
14.	Shaxs yetukligi					0,669	
15.	Tashkilotchilik qobiliyatidagi individuallik						0,776
16.	Shaxslararo o‘zaro ta‘sir						0,607

Sotsial intellekt darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarning kamoloti bilan bog‘liq faktorlar tahlilida oltita yetakchi determinantlar kuzatildi. Bir jihatdan ushbu faktorlar miqdori, ikkinchidan, sotsial intellekt bilan shaxs kamolotini tavsiflovchi komponentlardagi korrelyatsiyalar o‘ziga xoslikni ko‘rsata oldi.

Aniqlangan birinchi psixologik yetakchi determinantlar orasidagi tashkilotchilikka qobiliyatlik (0,780), shaxslararo o‘zaro ta‘sir (0,768), shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari (0,767), shaxsning yo‘nalganligi (0,703), muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (0,650) jihatlari faktorning tarkibiy tuzilmasini o‘zida aks ettirgan. Faktorda ham sotsial intellekt komponenti bilan shaxs kamoloti jabhalari o‘rtasida yaqqol bog‘lanishlar kuzatildi.

Oqibatda shaxslararo o‘zaro ta‘sirchanlik qobiliyatiga ega shaxslarda tashkilotchilik qobiliyati tarkib topishi hamda e‘tiqodlilik, sobitqadamlilik, hamiyatlilik, beg‘arazlik, haqgo‘ylik, kamtarlik, adolatlilik, e‘tiqodlilik, sobitqadamlilik, beg‘arazlik, haqgo‘ylik, kamtarlik, adolatlilik, shaxsiy fazilatlarini o‘zlashtirishi mumkin. Fazilatlarini o‘zlashtirishi esa, shaxsning muloqotdagi sherigini tushunishi mumkinligi bilan ham bog‘liq. O‘zga insonlar bilan munosabatga kirishish, o‘z navbatida shaxsning o‘zini tushunishiga ham undaydi. Faktordagi jihatlarning vaznini hisobga olgan holda bu faktorga **“Shaxs kamolotida sotsial intellektning ta‘sir diapazonlari”** degan nomni tanlandi.

Ikkinchi faktor shaxsning o'ziga xos xususiyatlari (0,817), noverbal xulq-atvorni tushunish (0,775), verbal ekspressiyani tushunish (0,534)dan iborat. Ushbu faktor tarkibida sotsial intellektning ham verbal, ham noverbal xulq-atvorni tushunishga xizmat qiluvchi jihatlarini mujassamlashganganligi shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini kamol topishiga turtki beradi, ya'ni o'zgalarning psixologik xususiyatlari va holatlarini tez ilg'ashga qobillik, o'zgalar ichki kechinmalari va hislarini o'zinkiday qabul qilishga moyillik, o'zgalar kechinmalari, xatti-harakatlari va xulq-atvorini tahlil etishga qobiliyatlilik, o'zini xayolan o'zganing o'rniga qo'ya bilish uquvchanligini tarkib toptiriga xizmat qiladi. Mantiqiy mulohazalar faktorni **“Verbal ekspressiya va noverbal xulq-atvorni tushunish – shaxs xususiyatlarini shakllantiruvchi determinant”** tarzida qayd etishga sabab bo'ldi.

Uchinchi faktorni fuqarolik burchi (0,809), o'z meniga munosabat (0,689) va beshinchi faktorni erishganlik motivatsiyasi (0,798), hayotiy ustanovka (0,680) va shaxs yetukligidan (0,669) yuqori yuklamali faktorlar tshkil etdi. Ikkala faktorning tuzilmasida shaxsning psixologik yetukligini tavsiflovchi jihatlar aks etgan. Ikkala faktorning tarkibiy tuzilmasidagi yuqori yuklamali koeffitsientlar shaxs kamolotining umumiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ularning o'zaro aloqasi hamda ijobiy ichki bog'liqliklari shaxs kamolotiga ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Izohlarga asoslanib, ushbu uchinchi va beshinchi faktorlarni birlashtirgan holda sodda tarzda **“Shaxs kamolotining tarkibiy jihatlarini”** deb nomlandi.

To'rtinchi faktorning tarkibini ijtimoiy ta'sir etuvchanlik (0,858) va verbal ekspressiyani tushunish (0,583) tashkil etmoqda. Verbal ekspressiyani tushunish qobiliyati shaxsda insonlar munosabatlarining tabiati va qirralariga yuqori sezuvchanlik bo'lib, bunda ular ma'lum bir vaziyat, o'ziga xos munosabatlar kontekstida odamlarning bir-biriga aytganlarini tez va to'g'ri tushunadilar. Insonlarning muloqot vaziyatlarida turli suhbatdoshlar bilan tegishli muloqot ohangini topa oladilar va har xil rolli vaziyatlarga kirisha oladilar. Shunga ko'ra faktorni **“Verbal ekspressiyani tushunish – ijtimoiy ta'sir vositasi”** deb atash o'rinli.

Oltinchi faktorni tashkilotchilik qobiliyatidagi individuallik (0,776) va shaxslararo o'zaro ta'sir (0,607) tashkil etgan. Tahlil qilinayotgan faktorda deyarli tahlil etilgan tadqiqotning bir qator empirik tahlillarida biror bir tarzda shaxsning tashkilotchilik qobiliyatining individuallashuvi bilan sotsial intellektning tarkibiy jihatlarida bog'lanish kuzatilmagan edi. Aniqlangan oltinchi faktordagi bog'lilikka tayanib, uni **“Shaxslararo o'zaro ta'sir tashkilotchilik qobiliyatining individuallashuvi sababi”** deb nomlashga turtki berdi.

Tadqiqotning ushbu bosqichidagi faktorli tahlil natijalari sotsial intellekt darajalari shaxs kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik determinant vazifasini bajarishini empirik asosladi. Mazkur tadqiqotning navbatdagi bosqichida empirik materiallar hamda mualliflik metodikasi asosida sotsial intellektning darajalariga asoslanib, shaxs kamolotini tavsiflovchi tipologik yondashuv amalga oshiriladi.

## XULOSA

1. Empirik materiallar asosida o'tkazilgan tadqiqotlar, shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanish darajasi bilan sotsial intellekt o'rtasida aniq va sezilarli bog'liqliklar mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa, kamolot va ijtimoiy intellekt tushunchalarining bir-biriga bog'liq bo'lib, shaxsning umumiy rivojlanish holatini baholashda muhim omil sifatida xizmat qilishini tasdiqladi.

2. Faktorli tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, sotsial intellekt va shaxs kamoloti o'rtasidagi munosabatlarni tushunishda, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar va umumiy yetuklik darajasi asosiy determinantlar sifatida ajralib chiqdi. Bu omillar, shaxsning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli moslashishi va rivojlanishi uchun asosiy shartlar hisoblanadi.

3. Empirik natijalarga ko'ra, sotsial intellektning ijtimoiy munosabatlar, empatiya, muloqot va boshqalar bilan bog'liq komponentalari shaxs kamolotining muhim qismi sifatida aniqlangandi. Ayniqsa, shaxslararo ta'sir va verbal hamda noverbal tushunish qobiliyatlari kamolotning asosiy mezoni bo'lib, ular shaxsning ijtimoiy muhitda faoliyat yuritishida muhim rol o'ynaydi.

4. Tadqiqotlar natijasida sotsial intellekt darajasining yuqori bo'lishi shaxsning kamoloti bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqliklar shaxsning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynashini tasdiqladi. Ayniqsa, tashkilotchilik, kommunikatsiya va shaxslararo munosabatlar sohalarida yuqori ko'rsatkichlar kamolotning yuqori darajasiga ishora qilishini ko'rsatdi.

5. Empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, shaxs kamoloti va sotsial intellekt komponentalari orasida ijobiy bog'liqliklar mavjud bo'lib, bu shaxsning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim shartlar hisoblanadi. Bu esa, kamolotni rivojlantirish uchun sotsial intellektni shakllantirish va mustahkamlash muhimligini ta'kidladi.

Xulosalarga tayanib, shaxsning kamolotini kuchaytirish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni taqdim etish lozim topildi:

Shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishini samarali baholash uchun, so'rovnoma va testlar orqali so'zlash, empatiya va boshqa ijtimoiy ko'nikmalarni alohida o'rganishni tizimlashtirish tavsiya etiladi.

Kamolot va ijtimoiy intellektning o'zaro munosabatlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida, ilmiy tadqiqotlar va amaliyotlarda shaxsning ijtimoiy muomalalardagi qobiliyati hamda kommunikativ skilllarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilsin.

Mutasaddilar va pedagoglarga so'zlash, muloqot va ijtimoiy munosabatlar bo'yicha maxsus treninglar, seminarlar tashkil qilish va ularni hayotiy amaliyotda qo'llashni rag'batlantirish lozim.

Tadqiqotlar natijalariga asosan, shaxsning ijtimoiy ko'nikmalarini va kamolotini oshirish uchun mo'ljallangan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va keng joriy etilishi zarur bo'ladi.

### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Журавлев А.Л. Социальная психология личности и малых групп: некоторые итоги исследования // Психологический журнал. 1993. Т. 14. № 4. С. 4–15.
2. Леонов Н.И., Главатских М.М. Социально-психологическая зрелость личности: интегративный подход / Н.И. Леонов, М.М. Главатских // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: философия. Психология. Педагогика. – 2014. – № 1. – С. 55-60.
3. Панкина Е.В. К вопросу о соотношении понятий «психологическая зрелость» и «самоактуализация» в психологии личности / Е.В. Панкина // Вестник Московского гос. гуманитарного университета им. М.А. Шолохова. Серия: Педагогика и психология. – 2010. – № 4. – С. 26-30.
4. Паттурина Н.П. Проблема зрелости в современной психологии /Н.П. Паттурина // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. – 2006. – Т. 7. – № 17. – С. 113-126.
5. Собирова Д.А. Ўқитувчи социал интеллектининг психологик асосларини такомиллаштириш: Психол.ф.н. (PhD)... диссертация автореферати: 19.00.05. – Т.: О'зМУ, 2017. – 43 б.
6. Собирова Д.А. Тиббиёт ходимлари фаолиятида социал-психологик компетентлик омилларининг намоён этилиши ва ривожланиши : Психол.ф.д. (DSc)... диссертация автореферати: 19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2022. – 61 б.
7. Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодёжи. Автореф. дисс. док. психол. Наук. - Т.: НУУз, 2005. –С. 221-б.
8. Шоумаров Ғ.Б. ва бошқ. Шарқона оила. – Т.: 2012. 122 б.
9. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психологиюя / Э.Ғ.Ғозиев; Ўзбекистон Республикаси Олий ва о'рта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети – Т.: Noshir, 2008. – 410 б.
10. Agrawal R. (2003). Social Intelligence and Teacher Effectiveness.(Doctoral thesis, Bundelkhand University, Bundelkhand, U.P., India.).
11. Guilford J.P. The nature of human intelligence. New York: McGraw-Hill,1967.
12. Hooda D., Sharma N. R. & Yadava A. (2009). Social intelligence as predictor of positive psychological health. Journal of the Indian Academy of Applied Psychology, 35(1), 143-150.
13. Ickes, W. (2001). Measuring empathic accuracy. In J. H. Hall & F. J. Bernieri (Eds.), Interpersonal Sensitivity: Theory and Management. Mahweh, N. J.: Erlbaum.
14. Sternberg R.J. Successful intelligence. New York: Plume, 1997.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000